

## **TARBIYASI QIYIN VA BO`SH O`ZLASHTIRUVCHI O`QUVCHILAR O`QUV-BILUV FAOLIYATI DARAJALARINI TASHXISLASH**

*Toshkent kimyo Xalqaro universiteti ,  
boshlang'ich ta'lim metodikasi  
bo'limi magistratura mutaxassisligi  
1-kurs talabasi  
Maxanbetov Nurlan Joldasbaevich*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishslash samaradorligini oshirish va takomillashtirish. O`quvchilar bilim va ko`nikmalarini to`g`ri va obyektiv tashxislash to'grisida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim,tarbiya, tashxis, topshiriq, qobiliyat,muloqot, o`z-o`zini nazorat qilish, baholash.

Ta'lim tizimi – ijtimoiy-genetik mexanizm bo`lib, u ijtimoiy tajribani avloddan-avlodga o`tkazadi va shu orqali shaxsni shakllantirishni ta'minlaydi hamda uning istiqbollarni belgilaydi. Bu tizim odamzod paydo bo`lgan davrlardan buyon amal qilib kelmoqda. Zero, madaniy-ma'naviy boyliklarsiz, ta'lim tizimisiz jamiyat yashay olmaydi. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim oliy darajadagi ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy institut bo`lib hisoblanadi.

O`sib kelayotgan yosh avlodning bilimi va ularning kelajakda qanday kasbhunar egallashlariga qarab mamlakatimiz kelajagini tasavvur qilish mumkin. Yoshlar farovon hayotimiz mezonidir. Yoshlarga ta'lim-tarbiya berish har bir ota-onaning, o`qituvchi-pedagogning Vatan oldidagi muqaddas burchidir.

Kelajakda buyuk “davlatni sog`lom mafkurali, ma'naviy barkamol avlod barpo eta olishini nazarda tutib, komil insonni tarbiyalash borasidagi izlanishlarni istiqbolda ham davlat siyosati darajasida uzlusiz kuchaytirib borish va umumxalq harakatiga aylantirish tarixiy sharoitda bolalikning ilk pog`onalaridan oq yoshlarda ijtimoiy qimmatga ega faoliyatni tarbiyalash, bolalarda o`qish-o`rganishga nisbatan ehtiyojni kuchaytirish, ularni ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilaridan faol sub'ektlariga aylantirish dolzarb muammo bo`lib qolmoqda.

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim fanlari orqali o`quvchilarning umuminsoniy va ahloqiy ko`nikmalari, dastlabki savodxonlik malakalari shakllantiriladi. Ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish saloxiyatini, aqliy rivojlanishini dunyoqarashini, o`z-o`zini anglash, jismoniy sog`lom bo`lishga, milliy urf-odatlarni o`zida singdirishga, mamlakatimiz boyliklarini ko`z-qorachig`iday asrashga, tabiatga ongli munosabatda bo`lishga o`rgatadi. O`quvchi maktabga kelgan dastlabki kunidan boshlaboq o`qishga havas qo`yishi savodli o`qishi, dastlabki amallarni to`g`ri

bajarishga o`rgatishi kerak. O`qish inson xayotida muxim axamiyatga ega. O`qishni bilmagan odamning ko`zi ojiz kishidan farqi yo`q. O`qish faoliyati boshlang`ich sinflarda barcha fanlar tarkibida amalga oshiriladi, lekin o`qishga o`rgatish o`qish darslarining asosiy vazifasidir. Kichik yoshdagi o`quvchini o`qishga o`rgatishda ularning umumiy rivojlanishini, psixologiyasini hisobga olish zarur. Ta`limga ilg`or pedagogik texnologiyalarni olib kirish va eng zamonaviy, takomillashgan o`qitish usullarini qo`llagan xolda yuqori samaraga erishish bugungi kun boshlang`ich ta`lim oldidagi dolzarb vazifalaridan biridir. O`quvchilarni qiziqarli topshiriqlar asosida o`qitish o`qishga o`yin tusini beradi. Bola o`ynab charchamaganidek, o`qib charchaganini sezmaydi. O`qishga qiziqmaydigan, darslarga kelib-kelmaydigan o`quvchilar ham o`yinga qiziqadi. Darslarda turli o`yin mashg`ulotlarini tashkil etish bu o`quvchilarda ham qiziqish uyg`otadi.

Tashxis va tashxislashning o`zaro farqini ajratmoqchi bo`lsak, diagnostika bu umumiy yonlashuv bo`lsa, tashhislash bu pedagogik faoliyatning amaliy jarayoni ekanligini anglashimiz lozim bo`ladi. Demak, diagnostika – bu didaktik jarayonlar kechishining barcha shart-sharoitlarini oydinlashtirish va uning natijalarini xatosiz aniqlash demakdir. Tashxislovchi tahlillarsiz didaktik jarayonlar kechishining yuqori samaradorligiga erishib bo`lmaydi.

Tashxislash ikki yo`nalishda olib boriladi: 1) o`zlashtirganlik, ya`ni oqibatlar va erishilgan natijalarni tashhislash; 2) bilish imkoniyatlarini tashhislash. O`zlashtirganlik, shuningdek, tashhislash jarayonida belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi sifatida ham qaraladi. Didaktik tashxislashning maqsadi o`quv jarayonini, uning samaradorligi bilan bog`liq holda, tahlil qilish, baholash va o`z vaqtida aniqlashdir.

Ko`rib turibmizki, o`quvchilar bilim va ko`nikmalarini an'anaviy baholashdan ko`ra diagnostika qilishning mohiyati kengroq. Bilim-malakalarni tekshirish shunchaki natijalarni ko`rsatadi, xolos, ularning kelib chiqish sabablarini ko`rsatmaydi. Tashxislash natijalarni unga erishish yo`llari va vositalari bilan bog`liq holda ko`rib chiqadi, ta`lim mahsuli shakllanishining kechishi va dinamikasini aniqlaydi. Tashxislash o`zida nazorat, tekshirish, baholash, jarayonning kechishi va dinamikasini aniqlash hamda keyingi voqealar rivojini prognoz qilish kabilarni mujassamlashtiradi. Tashxislashda o`quvchilar bilimini nazorat qilish, baholash ushbu jarayonning muhim tarkibiy qism sifatida amalga oshiriladi. Bu pedagogik texnologiyalarning juda qadimi komponentlari sanaladi. Nazorat va baholash insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichida paydo bo`lganligi sababli maktablarning yo`ldoshi sifatida uning butun rivojlanish jarayonida hamrohlik qilib kelmoqda. Shunga qaramay hozirgacha bilimlarni baholashning mohiyati va uning texnologiyasi haqida qizg`in bahslar davom etmoqda. Yuz oldin bo`lgani singari hazir ham olimlar baho nimani ko`rsatishi kerak: ta`lim sifatining indikatori bo`lishi kerakmi yoki, aksincha, muayyan ta`lim tizimi

kamchiliklari yoki yutuqlarini belgilab beradigan ko`rsatgich bo`lishi kerakmi, degan savollar ustida tortishuvlar olib boryaptilar. Hatto Ya.A.Komenskiy o`zi yashagan davrda maktab bahosining ziddiyatli xususiyatlarini ta'kidlab, o`z hamkasblariga ularga berilgan baholash huquqidan oqilona va taroziga solib ko`rib foydalanishlarini maslahat beradi. Bilimlarni nazorat qilishdagi xolislikni pedagoglarni o`z o`quvchilariga nisbatan insonparvar munosabati bilan bog`langan holda amalga oshirish talab barcha didaktik tizimlarga singdirilgan.

K.D.Ushinskiy ham o`zi yashagan davridagi nazorat shakllarni qattiq tanqid qiladi. Ularga ta`rif berar ekan, eng avvalo bu nazorat turlarining o`quvchilar aqliy faoliyatiga bosim o`tkazuvchilik va uni tormozlab qo`yish xususiyatini qoralaydi. Odatda, o`qituvchi bir yoki bir nechta o`quvchidan so`raydi, qolganlari esa bu vaqtida bo`sht qolishadi. Ular vaqtlarini behudaga ketkazib, hayajon bilan o`z navbatlarini kutib turish jarayonida kuchlarini yo`qotishadi. Tabiiyki, bunday sharoitda o`quvchi qiziquvchanlik va tashabbuskorlikni namoyon etish imkoniga ega bo`lmaydi.

Yangi demokratik maktabda soxta nazorat bo`lmasligi kerak. Didaktik nazorat o`ziga xos ta`lim metodi sifatida yorqin ifodalangan ta`limiy va rivojlantiruvchi yo`nalishga ega bo`lishi, o`z-o`zini nazorat qilish bilan birlashtirilishi va eng avvalo o`quvchining o`zi uchun zarur va foydali bo`lishi kerak.

Maktab nazoratiga yangicha yondashuv borasida o`tmishda amalga oshirilgan barcha urinishlar samarasiz bo`lib qoldi. Chunki ular faqat bir masala – maktablarda baho va nazoratni qoldirish yoki nazoratdan voz kechish muammosi yuzasidan olib borilgan edi.

Maktab hayotini demokratlashtirish bilim va ko`nikmalarni nazorat qilish va baholashdan emas, balki baho yordamida o`quvchini o`qishga rag`batlantirishning mashaqqatli shaklidan voz kechishni talab qiladi. O`quvchi o`quv-biluv faoliyatini stimullashtirishning yangi usullarini qidirish, ta`lim va tarbiya jarayonida kuchayib borayotgan shaxsiy manfaatdorlik printsipi boshqacha yondashuvlarni talab etadi. Tashhislash tizimida baho o`quv-biluv faoliyatini stimullashtirish vositasi sifatida yangicha mazmun kasb etadi. Eng avvalo, tashhislash natijalari, unda baho tahlili (ballar) mavjudligi sababli shaxsnинг o`z imkoniyatlarini anglashiga yordam beradi. Bu esa o`zaro raqobatchilik jamiyati sharoitida muhim rag`batlantiruvchi omil bo`lib hisoblanadi. Ta`limning ixtiyorilik printsipi bilan muvofiqlashtirilgan holda baho, o`tmishda o`quvchilar yoqtirmaydigan, ularni majburlaydigan narsa bo`lgan bo`lsa, endilikda o`quvchi shaxsiy reytingini belgilaydigan, taraqqiy etgan jamiyatda insonning ahamiyati, qadr-qimmatini belgilaydigan vositaga aylanadi.

O`quvchilar o`zlashtirishini tashxislash va nazorat qilishning muhim printsiplari - ob`ektivlik, tizimlilik va ochiqlik bo`lib hisoblanadi.

**Ob`ektivlik printsipi** tashxislash testlari (savollari, topshiriqlari), tashxislash protseduralarining ilmiy asoslanganligi, o`qituvchining barcha o`quvchilarga nisbatan

do`stona munosabatda bo`lishi, bilim va ko`nikmalarni baholashning aniq va mos mezonlarini ishlab chiqishini nazarda tutadi.

**Tizimlilik printsipi** didaktik jarayonning barcha bosqichlarida – bilmlarni dastlabki idrok etishdan tortib, to ularni amalda qo`llashgacha diagnostik nazorat o`tkazish zarurligini talab etadi. Tizimlilik printsipi yana shuni nazarda tutadiki, muntazam tashxislashda ta`lim muassasasida bo`lgan dastlabki kunidan to oxirgi kunigacha barcha ta`lim oluvchilar to`la jalb etiladi. Maktab nazoratini shunday oraliqda tashkil etish kerakki, o`quvchilar bilishi va bajara olishi kerak bo`lgan barcha bilim va ko`nikmalarni tekshirish ishonchliligi yuqori bo`lsin. Shuningdek, tizimlilik printsipi tashhislash jarayonini kompleks tashkil etishni talab etadi. Bunda nazorat, tekshirish va baholashning barcha shakl, vosita va metodlari o`zaro aloqadorlikda hamda birgalikda, yagona maqsadga bo`ysundirilgan holda olib boriladi. Bunday yondashuv tashxislashning alohida metod va vositalari universalligini rad etadi.

**Ochiqlik printsipi** avvalo barcha ta`lim oluvchilarning hammasi uchun bir xil mezonlar bo`yicha ochiq sinovlar o`tkazishni nazarda tutadi. Har bir o`quvchining tashhislash jarayonida aniqlangan reytingi ochiq ko`rganzmali va taqqoslovchanlik xarakterida bo`ladi. Ochiqlik printsipi baholarni e`lon qilish va motivlashtirishni ham talab etadi. Baho – bu o`quvchilar uchun shunday yo`nalishki, unga qarab o`quvchilar bahoga qo`yiladigan talablar etaloni haqida ma'lumotga ega bo`ladilar. Bu printsipning yana bir asosiy sharti tashhislash jarayonidagi uzilishlar va ularning natijalarini e`lon qilish, tegishli kishilar bilan birgalikda ularni muhokama va tahlil qilish, bunday uzilishlarni bartaraf etishning istiqbolli rejalarini tuzishdir.

Bilim va ko`nikmalarni tashhislash, nazorat qilish, tekshirish va baholash shunday mantiqiy izchillikda olib borilishi kerakki, ularni o`rganish ham shunday izchil tashkil etilishi kerak.

Tekshirish tizimining **birinchi zvenosi** bu o`quvchilar bilim darajasini *dastlabki nazorat* bo`lib hisoblanadi. Qoidaga ko`ra dastlabki tashhislash o`quv yili boshida o`quvchilarning kurs bo`yicha o`tgan o`quv yilida o`zlashtirgan bilimlarining muhim bog`lanishlarini aniqlash maqsadida o`tkaziladi. Dastlabki nazorat bilim va ko`nikmalardagi kemtikliklarni kompensatsiyalovchi (qayta tiklovchi) ta`lim bilan moslashtirilgan holda olib boriladi. Shunday tekshirishni faqat o`quv yili boshida emas, balki o`quv yili o`rtasida, kursning yangi bo`limini boshlashdan oldin ham o`tkazish mukin va o`rinli.

Tekshirishning **ikkinchi zvenosi** har bir o`rganiladigan mavzuni o`zlashtirish jarayonida bilimlarni *joriy tekshirish* bo`lib hisoblanadi. Garchand bu nazorat darsdan-darsga amalga oshirilsa ham, o`quv dasturining ayrim elementlarini o`zlashtirishni tashhislash imkonini beradi. Joriy nazoratning bosh vazifasi – o`rgatuvchilik vazifasi bo`lib hisoblanadi. Bu nazoratning shakl va metodlari turlicha bo`lishi mumkin. Ular o`quv materiali mazmuni, uning murakkabligi, ta`lim oluvchilarning yoshi va

tayyorgarlik darjasи, ta'lim maqsadi va darjasи, mavjud shart-sharoitlar singari omillarga bog`liq.

Bilim va ko`nikmalarni tekshirishning **uchinchi zvenosi takroriy nazorat** bo`lib, u ham joriy nazorat singari mavzulashtirilgan bo`lishi kerak. Yangi o`quv materialini o`zlashtirish jarayoni bilan yonma-yon ravishda o`quvchilar oldin o`tilganini ham takrorlab boradilar. Takroriy nazorat bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan bo`lib, o`quv mehnati dinamikasini xarakterlash va o`zlashtirilgan bilimlarning ishonchlilik darajasini aniqlash imkonini bermaydi. Bu nazorat turi tashhislashning boshqa turi va metodlari bilan birgalikda olib borilganda qo`shimcha samaradolrлиgi oshishi mumkin.

Tizimning **to`rtinchi zvenosi** – bu o`quvchilarni to`liq bir bo`lim yoki kursning bir nechta mavzulari bo`yicha egallagan bilim va ko`nikmalarini aniqlashga qaratilgan *oraliq nazoratdir*. Bu nazoratning maqsadi - kursning turli qismlari orasidagi bog`liqliklarni o`quvchilar tomonidan o`zlashtirish sifatini tashhislash bo`lib hisoblanadi. Oraliq nazoratning bosh vazifasi – tizimlashtirish va umumlashtirish bo`lib hisoblanadi.

Nazoratni tashkil etishdagi **beshinchи zveno** – bu *yakuniy nazorat*, ya`ni butun didaktik jarayon bosqichlari davomida o`quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko`nikmalarni hisobga olishga mo`ljallangan nazoratdir. O`zlashtirishni aniqlashning yakuniy nazorati har chorak yakunida va o`quv yili yakunida o`tkaziladi. O`qituvchi bahoni e`lon qilayotgan vaqtida har doim uni mavjud mezonlar va mantiqqa tayangan holda asoslab berishi lozim. Tajribali o`qituvchilar buni yaxshi bilishadi va e`lon qilinayotgan baholarni izohlab, o`quvchilarbilin yuz berishi mumkin bo`lgan ziddiyatlarning oldini olishga harakat qiladilar.

O`qituvchilarning baholash jarayonidagi sub`ektivliklari turli xil bo`lishi mumkin. Tajribalarning birida o`qituvchilarga baholash uchun o`quvchilarning “shaxsiy hujjat” lari berildi. Shunga ko`ra ular o`quvchining aqliy rivojlanish darjasи, ota-onalarning maktabga munosabati, shuningdek, o`quvchining kelajakdagi rejalarini aniqlash kerak edi. Gap shundaki, barcha ekspertlarga bir xil “shaxsiy hujjat” berilib, faqat turli xil ko`rinishdagi (jozibali, uncha ko`zga yaqin bo`lmasligi va sh.k.) rasmlar yopishtirilgan edi. Ayon bo`ldiki, rasmida o`ziga tortadigan, jozibali o`quvchilarga o`qituvchilar aqliy darajasiga ham, sinfdoshlar orasidagi mavqeiga ham yuqori baho bergenlar. Yana shunisi qiziqliki, oldinda o`tiradigan bolalarga ham o`qituvchilar beixtiyor diqqatni ko`proq qaratar ekanlar va ularga yuqori baho qo`yishga ko`proq moyil bo`larkanlar. O`qituvchining sub`ektiv moyilliklariga ko`p narsa bog`liq bo`ladi. Ma'lum bo`lishicha, chiroli yozadigan o`qituvchilar “kalligrafist”, ya`ni husnixati chiroli bo`lgan o`quvchilarga e'tiborliroq bo`larkanlar. Chiroli tallaffuzga nisbatan sezgir bo`lgan o`qituvchilar nutqida kamchiligi bo`lgan bolalarni, ko`pincha, nohaq jazolar ekanlar.

Baholashga nisbatan subyektiv munosabatning yana bir sababi baho mezonlarining atroflicha ishlab chiqilmagani bilan izohlanadi.

Aynan ana shu pedagogik subyektivizmning mavjudligi tufayli bugungi kunda bolalar nazoratning o`qituvchi ishtiroki minimal darajaga tushirilgan kompyuter yoki test turlarini ma`qul ko`rmoqdalar.

O`qituvchi ongli ravishda o`quvchi tomonidan bajarilgan topshiriqning aniq va xolis baholashga harakat qilishi kerak. Bundan taqari har safar o`quvchilarga qanaqa va nima uchun baho qo`yayotganligini o`qituvchi tushuntirishi kerak bo`ladi.

Demak, aytish mumkinki, o`quvchilar bilim va ko`nikmalarni to`g`ri va obyektiv tashxislash to`liq o`zlashtirish tizimini amalga oshirishning asosiy shartlaridan biri bo`lib hisoblanadi.

### **Xulosa**

1. O`quvchilarning o`quv materialini o`zlashtirish jarayoni murakkab psixik jarayonlar bilan bog`liq bo`lib, u o`quv-biluv faoliyati orqali amalga oshiriladi.

2. O`quv faoliyati yoki o`quv mehnati boshlang`ich sinf o`quvchisi uchun yangi, shu bilan birga o`ta murakkab faoliyat turi bo`lib, u agar alohida g`amxo`rlik ko`rsatib, e`tibor berilmasa, sinfda tarbiyasi qiyin va bo`sh o`zlashtiruvchi o`quvchilarning paydo bo`lishiga sabab bo`ladi.

3. Maktabga kelgan bola uchun o`quv materiali uning yangi faoliyati (o`quv-biluv faoliyati) ob`ekti hamda o`zlashtirish predmeti sanaladi.

4. O`quv materiali o`quvchi o`quv-biluv faoliyati ob`ekti, shuningdek, o`zlashtirish predmeti sifatida o`ziga xos tarkibiy qismlarga ega. O`quv materiali mazmunida o`zaro aloqador to`rt element amal qiladi: a) bilimlar; b) ko`nikma-malakalar; v) ijodiy faoliyat tajribasi; g) borliq hodisalariga munosabat.

5. Bilimlarni o`zlashtirish jarayoni murakkab psixik operatsiyalar bilan bog`liq. Ayniqsa, kichik mакtab yoshi o`quvchilarining bilimlarni o`zlashtirish jarayonlari o`ziga xos nozik jihatlari bilan boshqa yosh davrlaridan farq qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Adizov B.R. Boshlang`ich ta`limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Dokt. diss. Toshkent, 2003. -320 b.
2. R.A.Mavlonova, B.Normurodova. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”. –T., 2007 yil.
3. «Odob – ahloqga oid hadis namunalari». T., «Fan» 1970 yil.
4. N.I.Boldirev. «Sinf rahbari. T., «O`qituvchi» 1975 yil.
5. Kaykovus «Qobusnom» T., «O`qituvchi». 1986 yil.
6. A.J.Jo`raev. «Tarbiyaviy darslarni o`tish». T., «O`qituvchi» 1994 yil.
7. Z.Qo`ziev. «Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish». T., 1997 yil.